

## HARBIY YOSHLARNII VATAN RUHIDA TARBIYALASHDA HARBIY PSIXOLOGNING ÒRNI VA AHAMIYATI.HARBIY MUASSASA XODIMLARINING PSIXOLOGIK HOLATINI BAHOLASH.

*Berdoq nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universiteti  
Sa'natshunoslik fakulteti Psixologiya va Pedagogika  
kafedrasi Amaliy psixologiya yo'nalishi talabalari  
Madaminova Nargiza Qurbanbayevna, Ismailova Guljahon Fahraddinovna.*

**Annotatsiya.** Bu maqolada harbiy yigitlarning vatanga bòlgan muhabbatini shakllantirish. Harbiy yigitlar òzini qanday tutishi ularning xizmat paytidagi psixologik holati. Harbiylar orasida suitsid holatlari kuzatilishida harbiy psixologning vazifasi va ularning oldini olish choralari. Harbiy yigitlarni vatan ruhida tarbiyalash. Harbiy muassasa xodimlardagi psixologik holatlarni baholash. Ularga psixologik maslahat berish.

**Kalit sòzlar.** Harbiy psixologiya, Sh. Mirziyayev, Harbiy psixologiya vazifasi, Qurolli Kuchlar, harbiy psixolog maqsadi, seminar, trening.

Oliy va o'рта maxsus ta'lim yurtlaridagi harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - davlatimiz faoliyatining muhim sohalaridan biridir. Hozirgi paytda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni Respublikamizning o'quv muassasa ta'lim tizimi bilan yangilanishi, mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi jadallashuvi, Vatan himoyasidagi insoniy omillar o'rnining o'sib borishi va jangovar mehnat tashkilidagi keskin o'zgarishlari bilan yuzaga kelgan an'analar bilan boyishi kerak. Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashning qayta ko'rilishi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmunini va tashkiliy – uslubiy tomonlaridan to'laroq foydalanishni talab qiladi.

Òzbekiston Raspublikasi Qurolli Kuchlarda "Vatan muqaddas uni himoya qilish sharaflı burch" kansepsiyasida harbiy xizmatni òtayotgan va ishlayotgan xodimlarning ma'naviy, marifiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash va ularning xarakter xususiyatlarni òrganish, ularda vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish maqsadida Òzbekiston Raspublikasi Qurolli Kuchlar tomonidan harbiy psixolog (ofitser) lavozimi tasis etildi. [1]

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi. albatta, vatanparvarlik va tuyg'ularini, Vatanga sadoqatni shakllantirishda yotadi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bolalarda o'z Vatani, vatandoshi bilan faxrlanish, o'z davlati tarixiga hurmat hissini uyg'otadi. Harbiy psixolog lavozimida ishlaydigan xodim harbiy yoshlarning vatanga ruhida tarbiyalash bilan birga harbiy xizmatda ishlaydiganlarning psixologik holatini baholab unga maslahat berish, ulardan tez tez suitsid holatlari kuzatilmaligi uchun test, metodika, seminar va treninglar òtishi

kerak. Harbiy xizmatda ishlayotgan xodimlarning ish faolyati yoki oilasi bilan boʻgʻliq muammolari bõlishi mumkin ularga psixologik jihatdan yondashib tegishli chora tadbirlar kòrishi kerak. Ularga seminar trening mashgʻulotlarni òtkazib turishi harbiy psixologning ish vazifasi hisoblanadi.

Harbiy yoshlarning vatanga bõlgan muhabbatini shakllantirish maqsadida trening va seminar òtkazish harbiy psixologning ish faolyati bõlib hisoblanadi.

Harbiy sohadagi psixologik xizmatning maqsadi – harbiy xizmatchi shaxsining har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini taʼminlovchi oqilona, zarur shartsharoitlar, omillar, qulay vaziyat va soʻgʻlom muhit yaratishdan iboratdir.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda psixologik xizmatning tarkibiy mazmuni harbiy xizmatchining individual psixologik xususiyatlarini oʻrganish bilan birga uning harbiy xizmatchi sifatida har tomonlama kamol topishi, uning ham maʼnaviy, ham aqliy rivojlanishi, oʻzligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun taʼlim-tarbiya hamda maʼnaviy-ruhiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.[2].

Harbiy muassasalarda psixologik ishlarning dolzarb muammolari sifatida quyidagilarni kòrsatish mumkin:

- harbiy xizmatchilarning kayfiyatiga, shaxsiyatiga, soʻgʻlom axloqiy-ruhiy holati va jangovar salohiyatiga salbiy taʼsir etuvchi shaxsiy muammolar;
- atrofdagilar bilan vujudga keladigan nizolar;
- turli shakldagi deviant (oʻgʻishgan) xulq-atvorlar;
- guruhiy (jamoaviy) muammolar-harbiy jamoaning axloqiy-ruhiy muhitini buzuvchi muammolar;
- jamoada ichidagi munosabatlarga tòsqinlik qiluvchi nizoli vaziyatlar (shaxsiy, axloqiy, xizmat);
- nizoli vaziyatlarda jamoaning kichik guruhlarga bõlinib ketganligi, harbiy
- xizmatchilar òzaro kelisha olmasligi, jamoada ijobiy qadriyatlarning yòqolishi va hokazolar.

Bu keltirilgan muommolardan kelib chiqqan xolda harbiy xizmat xodimlariga harbiy psixolog tomonidan ularga psixologik maslahat beriladi. Psixologik maslahat faqat shunga ehtiyoji bõlgan xodimlargagina beriladi. Maslahat berishdan oldin harbiy psixolog oldiga muammolari bilan kelgan inson bilan suhbat òtkaziladi. Suhbat hech kim bõlmaydigan xonada psixolog va mijoz bilan yoʻlgiz olib boriladi.

"Psixologik maslahat bu deyarli barcha imkoniyat va psixik soʻgʻlom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni hal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam kòrsatish yuzaga keladigan amaliyotdir".[3].

Psixologik maslahat-amaliy psixologiyaning alohida sohasi bõlib, harbiy xizmatchilarga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishida maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis tomonidan bevosita

kòrsatiladigan yordam bòlib, individual, guruhiy tarzda òtkazilishi mumkin. Maslahat berish psixologik xizmatning asosiy yònalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat òzi nimaligi haqida yagona tushuncha yòq. Har bi sohada xizmat olib borayotgan psixolog ishi boshqasi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

Haftalar, oylar va yillar davomida muddatli harbiy xizmat ko'pincha harbiy xizmatchilar va ularning yaqinlari uchun ruhiy va ruhiy stressga olib kelishi mumkin. Urush fikr va harakatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Darhaqiqat, ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ro'yxatga olingan erkaklar va ayollarning aksariyati ruhiy yoki hissiy buzuqlik yoki kasallikdan ta'sirlangan.

"Harbiy sohadagi psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir kòrsatish obyektini harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, muddatli harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilaridir. Demak, psixologik xizmat òz mazmun mohiyatiga kòra xizmat faoliyatining barcha tizimlari uchun zarur va kerak bòlgan ijtimoiy-psixologik hodisa ekan, biz uning omillarini bilishimiz lozim bòladi"[4].

Shuni umumiy xulosa qilib aytadigan bòlsak harbiy psixolog ish faolyati juda qiyin. Harbiy psixolog xodimlarning oilaviy munosabatlarni yaxshilash hamda ish faolyatiga oilaviy va shaxsiy muammolarni aralastirmasdan hal qilish va mijozga to'g'ri maslahat berish harbiy psixologning eng katta muvaffaqiyati desak bòladi. Yoshlarga vatan ruhini xis qildirish. Ona vatani sevish unga fidoyi farzand bòlishni tarbiyalash har bir yosh uchun burch ham farz bòlib hisoblanadi. Harbiylarning intellektual salohiyati ularning diqqat, xotira va boshqa kognitiv jarayonlarni òrganish hamda ularni mustahkamlash ofitserning ish faolyati bòlib hisoblanadi. Fikrimizcha, harbiy qism va muassasalarda ishlayotgan amaliyotchi psixologlar uchun psixodiagnostik metodikalardan foydalanish psixologik tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etish uchun òtkazilishi lozim bòlgan seminar treninglarning tashkil etish bòyicha qòllanmalar tayyorlab seminar treninglartashkil qilish lozim. Ushbu seminar-treninglarda kerakli adabiyotlar tarqatilsa, harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmat samaradorligiga hamda psixologik pedagogik tashxis sifatiga ijobiy ta'sir qilgan bòlar edi.

### Foydalangan adabiyotlar.

1. Òzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy va ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish tòg'risidagi Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2018 y. PQ-3898. qarori.
2. Mudofaa Vazirining Òzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qòshinlarida psixologik ishlarni tashkil etish Nizomini tasdiqlash tòg'risidagi 797-sonli buyruqi 15 avgust 2019-yil. 1-bob Umumiy qoidalar 4 bandi.
3. "Psixologik maslahat" Z. Nishonova M.; Toshkent-2010:(5-bet).
4. Sh. M. Mirziyoev Òzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yòllagan bayram tabrigi// "Xalq sòzi", 2017-yil 14-yanvar.